

### ALISHER NAVOIY ILMIY MEROSINI O'RGANISHDA HODI ZARIFOVNING O'RNI

**Barno Mirzayeva,**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek folklorshunosligining asoschisi, navoiyshunos olim, professor Hodi Zarifovning o'zbek mumtoz adabiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlari, Alisher Navoiy ijodi haqidagi ilmiy maqolalari haqida fikr yuritilgan. Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish, uni targ'ib va tashviq qilishda Hodi Zarifovning roli haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** ko'rgazma, yubiley, muzey, fotosurat, mumtoz adabiyot, folklorshunos.

**Аннотация.** В статье рассматриваются об исследованиях, проведенных основоположником узбекского фольклора, наоиведом, профессором Ходи Зарифовым по узбекской классической литературе, научных статьях о творчестве Алишера Навои. Описывается о роли Ходи Зарифова в проведении, продвижении и популяризации для проведения празднования 500-летия Алишера Навои.

**Ключевые слова:** выставка, юбилей, музей, фото, классическая литература, фольклорист.

**Annotation.** The article discusses the research conducted by the founder of Uzbek folklore, Navoi scholar, professor Khodi Zarifov on Uzbek classical literature, scientific articles about the work of Alisher Navoi. It describes the role of Khodi Zarifov in conducting, promoting and popularizing the celebration of the 500 th anniversary of Alisher Navoi.

**Key words:** exhibition, anniversary, museum, photo, classical literature, folklorist.

Ma'lumki, yirik olimlarning ilmiy faoliyati bir tekis kechmaydi. Ularning faoliyatida ma'lum muddat uzilishlar, asosiy tadqiqot ob'ektidan boshqa sohalarga o'tib turish, hatto tadqiqotchilikdan chetlashishlar ham bo'lib turadi. Hodi Zarifov ham bundan mustasno emas. Uning 30-yillardagi yetti-sakkiz yillik ilmiy faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi. Qatag'on yillarida bir muddat boshqa olimlar kabi siyosiy tuhmatlar bilan ilmdan, Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)dan chetlatilgan Hodi Zarifov ilm qilishdan to'xtamadi. Bu yillarda u asosiy diqqatini ko'proq sho'ro davri folklorini o'rganishga qaratdi, boshqa sohalarning (masalan, muzeylar va etnografiya) tashkiliy masalalari bilan band bo'ldi. Boshqa bir qator olimlar singari 30-yillar qatag'onliklaridan jismonan omon qolgan bo'lsa-da, bir necha yillar davomida uning jabrini tortdi. Bu haqda Hodi Zarifovning o'zi shunday guvohlik beradi: "1937-yilning o'rtalariga kelib adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda sub'ektivizm, qiroatxonlik, tarbiyaviy ta'sir vositalarini buyruq bilan almashtirish kabi zararli qarashlar birinchi planga o'tib oldi. Hatto "tanqidchilik" va "olimlik"ni da'vo qilgan ba'zi shaxslar tuturiqsiz, betayin hadiksirash yo'lini tutdilar, ilmiy-ijodiy ziyolilar ishidan asli tagida bo'lmagan "ayblar"ni qidirishga, "dushmanlik" alomatlarini topishga behuda urinib ko'rdilar. Bu hol intensiv rivojlanayotgan o'zbek folkloristikasiga ham zararli ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyotshunoslikka tasodifiy kirib qolgan betayin shaxslarning bema'ni ig'vosi va yolg'on tuhmati bilan O'zbekistonda adabiyotshunoslik va folkloristika rivojiga muhim ulush qo'shib kelayotgan fan xodimlaridan Otajon Hoshim, G'ozim Olim, Hamid Olimjon, Oybek va boshqalar qatorida o'zimizni ham ma'lum muddat Tili va adabiyoti institutidan chetlatishga ham erishildi. Yoshlardan ayrim o'rtoqlar esa, "o'z jonini saqlash" yo'liga o'tib, 1937-yilgacha xalq ijodi namunalari to'plash, o'rganish, nashr etish bo'yicha o'zbek folkloristikasi nimagaki erishgan bo'lsa, hammasini asossiz ravishda inkor eta boshladilar, undan qandaydir bo'lmagan "ayblar", "millatchilarning qo'llari"ni, "dushmanchilik" belgilarini topishga urindilar. Holbuki, o'zbek folklorining eng nodir namunalari... 20- va 30-yillarda to'plangan edi"[1, 252].

Olimning to'plovchilik faoliyatida ma'lum muddat uzilishlar davrini tashkilotchilik davri desa ham bo'ladi. Ammo o'sha davrda ham olim ijod qilishdan to'xtamadi. O'zbek mumtoz adabiyotining ilmiy matnlarini yaratishda, uning prinsiplarini ishlab chiqishda hamda navoiyshunoslik taraqqiyotida Hodi Zarifovning xizmatlari beqiyos. Uning ijodiy faoliyatida Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uni targ'ib va tashviq qilish ishlari alohida ahamiyatga ega. Hodi Zarifov 1926-yil oxirlaridan boshlab O'zbekiston maorif komissarligi ilmiy sho'rosi o'zbeklarni o'rganish qo'mitasida ilmiy hodim va davlat ilmiy kengashida siyosiy-oqartuv bo'limi mudiri vazifasida ishlay boshlagan davrdanoq, o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'zbek millatining dahosi, shoir Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga alohida e'tibor bergan edi. Olim Alisher Navoiy mumtoz adabiyotning markaziy siymosi ekanini vaqtida anglagan va uning ijodi yaxlit tarzda o'rganilsa va tadqiq etilsa, mumtoz adabiyotning tarixi to'laqonli shakllanishini bilgan. Shu bois o'tgan asrning o'ttizinchi yillardagi butun faoliyatini Alisher Navoiy ijodini o'rganishga va uning asarlarini chop ettirishga qaratdi. Bu haqda Hodi Zarifovning o'zi shunday deydi: "Biz bu ulug' mutafakkir (Alisher Navoiy) tavalludining hijriy 500 yilligini o'tkazish uchun masala ko'tarilgan va Ozarbayjon markazi Bokuda bu sohada tashabbus kengayib, bir qancha ishlar qilingan paytda, O'zbekiston Maorif komissariati stipendiya komissiyasi Boku bo'limining raisi sifatida yubiley ishlariga qatnashish baxtiga muyassar bo'lgan edik. Shundan beri adabiyotimizning bobokaloni ijodi hamisha meni o'ziga jalb qilib keladi"[2, 3]. Ko'rinadiki, olimning navoiyshunoslik bilan shug'ullanishining yana bir sababi Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati sanaladi.

Darhaqiqat, o'tgan asrning 30-yillarida o'zbek mumtoz adabiyotining dahosi Alisher Navoiyning 500 yilligini munosib tarzda o'tkazish ishlari butun mamlakat miqyosida dolzarb masalaga aylandi. O'zbek tili va adabiyotining barcha soha vakillarining butun e'tibori Alisher Navoiy ijodini tubdan o'rganish va targ'ib etishga

qaratildi. Bu haqda Hodi Zarifov shunday deydi: “1938-yildan boshlab O‘zbekistonda Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga jiddiy ravishda kirishildi. Xususan, 1938-yilning sentyabrida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish qo‘mitasining tashkil etilishi bilan bu ishlar keng quloq yoydi. Shu qo‘mitaning mas‘ul kotibi Hamid Olimjondan keyin 1939-yildan boshlab men bo‘lgandim. Qo‘mita ishiga hamda Til va adabiyot institutiga mumtoz adabiyot masalalari bilan shug‘ullanib kelayotgan barcha mutaxassislar, Sadridin Ayniy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Uyg‘un, Amin Umariy kabi yozuvchi va shoirlar jalb etildi. Hatto viloyatlarda yashayotgan, arab va fors tillarini mukammal bilgan, madrasa ta‘limini olgan Boqiy domla (Mirzaabdulla Nasriddinov) singari ziyolilar ham jalb etildi. Navoiy asarlarini joriy alifboga ko‘chirish, qo‘lyozma manbalar asosida Navoiy lug‘atini tuzish uchun so‘z to‘plash ishlari boshlab yuborildi... Men Alisher Navoiy lirikasi, uning zamondoshlari, Navoiygacha bo‘lgan adabiyotni o‘rganishga kirishdim. U paytlarda ulug‘ shoir hayoti va ijodi haqida yirik monografik tadqiqotlar u yoqda tursin, hatto tuzukroq tahliliy maqolalar ham yo‘q edi”[3, 87]. Ko‘rinadiki, Hodi Zarifov 1938–1948-yillarda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish hukumat komitetining dastlab a‘zosi, so‘ng mas‘ul kotibi vazifasini bajargan. Olim shu yillarda Alisher Navoiy ijodini targ‘ib va tadqiq etishda jonbozlik ko‘rsatdi. U dastlabki ishini Alisher Navoiy ijodini to‘liq namoyon etuvchi ko‘rgazma tashkil etishdan boshladi. Xuddi shu yili, ya‘ni 1939-yilning fevralida o‘zi barpo etgan Alisher Navoiy ko‘rgazmasining direktori qilib tasdiqlandi. Ko‘p o‘tmay hukumatning “fotosuratlar ko‘rgazmasi hamda Alisher Navoiy portretini chizish bo‘yicha konkurs o‘tkazish”dek katta vazifa Hodi Zarifovning zimmasiga yuklatildi.

O‘zbekiston KP(b) Markaziy Komitetining madaniyat va san‘at sohasi qoshidagi san‘at ishlari bo‘yicha Kengashning 15-noyabr 1939-yil 225-sonli buyrug‘iga asosan Hodi Zarifov qisqa muddatda O‘zbekiston davlat muzeyi huzurida Alisher Navoiyning ko‘chma fotosuratlar ko‘rgazmasini tashkil etdi. Ko‘chma ko‘rgazmaning asosiy vazifasi mamlakatning chekka hududlarigacha Alisher Navoiy ijodini targ‘ib etish va butun millatni Alisher Navoiy dahosi bilan tanishtirish edi. Bu ishda ham Hodi Zarifovning o‘zi bosh bo‘ldi. Keyinroq, 1940-yilda Hodi Zarifov sa‘y-harakati bilan mazkur ko‘rgazma asosida Alisher Navoiy muzeyi tashkil etildi.

Biz olim faoliyatini o‘rganish jarayonida fikrimizga dalil bo‘luvchi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Markaziy arxividagi 1940–1941-yillarga doir hisobotlar papkasini ko‘rdik, unda “*Navoiy ko‘rgazmasi direksiyasining javobgari o‘rtoq Zarifov Navoiy ko‘rgazmasi materiallari asosida 1940-yil 25-noyabrgacha respublikaning viloyatlari va tumanlari uchun yuzta ko‘chma fotosuratlar ko‘rgazmasini tayyorlasin*”[4, 15], degan buyruq mavjud. Shu papkada olim 1940-

yilning sentyabrida Navoiy ko‘rgazmasini o‘tkazish bo‘yicha tayyorlagan hisobotida shunday deydi: *“San’at muzeyida Alisher Navoiyning dastlabki ko‘rgazmasi qisqartirilgan programma asosida ochildi... 1940-yilning oxirlariga kelib 100 ta ko‘chma fotosuratlar ko‘rgazmasiga tayyorgarlik ko‘rish ishlari yakunlandi”*[4, 19].

Alisher Navoiyning 500 yilligini sobiq butun ittifoq miqyosda keng tarzda o‘tkazish uchun markaz maxsus qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, ilmiy-nazariy anjumanlar Leningrad (Sankt-Peterburg)da, amaliy-targ‘ibot ishlar Toshkentda o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi. Biroq Ikkinchi jahon urushining boshlanishi mazkur rejalarning o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ldi. Shunday bo‘lsa ham Leningraddagi ilmiy anjumanlar ishini to‘xtatmadi.

Bu haqda professor Malik Murodov o‘zining “Navoiyshunoslar jasorati” risolasida batafsil ma’lumot beradi[5, 60]. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi yillarida qamaldagi Leningrad olimlarining Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini o‘tkazishdagi jonbozligi, qolaversa, o‘zbek adabiyotshunoslari: G.G‘ulom, H.Olimjon, Oybek, A.Qahhor, Shayhzoda, H.Zarif, I.Sulton, P.Shamsiev kabi olimlarimizning Sankt-Peterburg olimlari bilan hamkorlikda ish olib borgani haqida ham qiziqarli ma’lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari, risolada 1941-yilning 10–12-dekabrida Davlat Ermitajida o‘tkazilgan sessiya hamda 29-dekabrda Sharqshunoslik instituti Leningrad bo‘limida tashkil etilgan ilmiy kengash yig‘ilishlari tafsilotlari “Shaharlar hissasi”, “Hujjatlar tilga kirganda”, “Qurshov kunlarida ham”, “Navoiy ijodining oshiqlari”, “Mangulikdir ularning nomi”, “Qalb amri bilan”, “Okopga yetib kelgan xushxabar”, “Kavkazshunos – Navoiyshunos”, “Bosilmagan kitob” kabi sarlavhalar ostida ilmiy-ommabop uslubda bayon etilgan.

Malik Murodovning yozishicha: “SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limi arxivida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha 1938-yildan 1948-yilgacha Leningradda qilingan ishlar, rejalar, qarorlar majmuasini o‘z ichiga olgan ikki jild papka saqlanmoqda”[5, 9]. Ushbu jild papkalarining birida Hodi Zarifov yuborgan telegrammalar va unga qaytarilgan javoblar mavjud. Binobarin, “Alisher Navoiy yubileyini o‘tkazuvchi respublika komiteti tashkilot gruppasining kotibi Hodi Zarif Leningradga: Yubiley munosabati bilan Alisher Navoiyning Foni taxallusi bilan fors tilida yaratgan she’rlari ustida ham ilmiy-tekshirish ishlarini olib borish zarur. Toshkentdagi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Devoni Foni” mukammal emas. Leningrad kutubxonalarida, qo‘lyozmalar fondida “Devoni Foni”ning to‘laroq nusxasi bor-yo‘qligi haqida xabar qilishingizni respublika yubiley tashkilot komiteti Sizlardan iltimos qiladi” [5, 12], mazmunida telegramma yo‘llagan. Bu telegrammaga qisqa qilib yo‘q javobi berilgan. Navoiyshunos olimlarning izlanishlari natijasida “Devoni Foni” devonining mukammalroq nusxalari Parij, Istambul milliy kutubxonalarida saqlanayotgani

aniqlangan. Bunday mazmundagi ko‘plab telegrammalar Ye.E.Bertels, A.K.Borovkov, S.E.Malov, Qori Niyoziy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon va boshqa olimlar nomiga yuborilgan.

Hodi Zarifov Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda hammaga ibrat bo‘ladigan ishlarni amalga oshirdi. 1957-yilda Alisher Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha har yil o‘tadigan an’anaviy konferensiyaga asos solinishi Hodi Zarifov tashabbusi bilan amalga oshirildi. Olim 1957–1972-yillar davomida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi rayosati Alisher Navoiy ijodini o‘rganish qo‘mitasining mas’ul kotibi vazifasida ishladi.

Hodi Zarifov o‘zbek mumtoz adabiyotining ilmiy matnlarini yaratish, uning prinsiplarini ishlab chiqib, mumtoz adabiyot matnshunosligini shakllanishida ham munosib hissa qo‘shdi. Chunonchi, uning sa’y-harakati bilan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” dostonlarining ilmiy nashrlari chop etildi, ushbu ilmiy nashrlariga mas’ul muharrir bo‘ldi. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodida Alisher Navoiy obrazining aks etishi tadqiqiga e’tibor qaratdi. Natijada uning muharrirligi ostida M.Murodov, Z.Husainova, T.Mirzayevlar tomonidan tuzilgan “Dono Alisher”[6, 80] nomli Alisher Navoiy siymosi aks etgan xalq rivoyatlari to‘plami yaratildi. To‘plamga o‘n sakkizta rivoyat va bitta ertak (“Ziyod botir”) kiritilgan. Rivoyatlarning o‘n to‘rttasi va bir ertak xalq orasidan yozib olingan. To‘rt rivoyat esa (“Lutfiy va Navoiy”, “Navoiy va Osafiy”, “Qush”, “Chumoli”), Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan olinib, to‘plamga kiritilgan. Rivoyatlarda xalqimiz Alisher Navoiy siymosida o‘zining orzu-istaklarini amalga oshiruvchi, og‘ir kunlarda yordam qo‘lini cho‘zuvchi, uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qiluvchi ko‘makdosh va g‘amxo‘rini ko‘radi. Shuning uchun ulardagi tasvirlar ulug‘ shoirning aniq tarjimai holi bayoni emas, balki xalq ijodiga xos fantaziya va mubolag‘alar bilan berilgan, afsonalarga burkangan xalqparvar va adolatli buyuk donishmandning hayot yo‘lidir.

Hodi Zarifovning navoiyshunoslikka xos tadqiqotlarida Alisher Navoiyning lirik merosi, xususan, uning ruboiy va tuyuqlari tahlili, ulug‘ shoirni adabiy muhiti, zamondoshlari ijodi faoliyati, Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyot masalalarini o‘z ichiga oladi.

Atoqli olimning adabiyot tarixiga oid tadqiqotlarining xarakterli xususiyati shundaki, u adabiyotda juda kam o‘rganilgan yoki tekshiruvchilarning diqqatidan chetda qolgan masalalarni yoritishga harakat qiladi. Uning o‘zbek mumtoz adabiyotiga oid asarlarida, bir tomondan, Alisher Navoiyning buyuk shoir bo‘lib yetishishiga asos bo‘lgan ulug‘ shoirning ijodiy muhitini yoritisa, ikkinchi tomondan, Navoiy ijodining u yoki bu masalalarini tekshirdi[7, 13]. Natijada Navoiy ijodiga oid “Navoiy zamondoshlari” (1948) to‘plami, “Navoiyning ruboiy va tuyuqlari haqida”

(1944), “Lutfiy va Navoiy” (1948), “Badoe ul-bidoya”ning tuzilgan yilini aniqlashga doir” (1959), “Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asari haqida” (1969), “Mir saroyi” (1969) kabi maqolalari yuzaga keldi. Bu maqolalar 1969-yilda “Fozillar fazilati” nomi bilan alohida kitob sifatida nashr etildi. Maqolalarda Alisher Navoiyning davri, adabiy muhiti, bunyodkorlik faoliyati, ayrim zamondoshlari ijodi xususiyatlari, shoir ijodida ba’zi janrlar taraqqiyoti, adabiy ta’sir masalalari birinchi manbalar asosida yoritilgan.

“Lutfiy va Alisher Navoiy” asari o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy ta’sir muammosini badiiy ijodning ichki qonuniyatlari asosida tekshirishga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Badoe ul-bidoya”ning tuzilgan yilini aniqlashga doir” maqolasida ko‘p dalillar asosida “Badoe ul-bidoya” 1471-yilda tuzilgan degan xulosaga keladi[8, 30-95]. “Alisher Navoiyning ruboiy va tuyuqlari”[9, 64] nomli to‘plam so‘zboshi va izohlar bilan Hodi Zarifov tomonidan nashrga tayyorlandi. Olim mazkur to‘planning so‘zboshisida ruboiy va tuyuqlarning janr xususiyatlari va g‘oyaviy-badiiy qimmatini tahlil qilgan, izohlar va lug‘at bilan ta’minlagan.

“Navoiy zamondoshlari” to‘plami[10, 208] Hodi Zarifovning “Navoiyning adabiy muhitiga doir”(B.5-25) nomli kirish maqolasi bilan ochiladi. Unda Alisher Navoiy davri va Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyot har tomonlama tahlil etilgan. So‘ng Durbek, Haydar, Amiriy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Husayniy, Shayboniy, Bobur kabi shoirlar asarlaridan namunalar alohida-alohida qismlarda joylashtirilgan. Har bir qism oldidan asarlaridan namunalar keltirilgan hamda shoirlar to‘g‘risida bir yoki ikki sahifali ma’lumotnomalar berilgan. Bu ma’lumotnomalar har bir shoir ijodiga xos xususiyatlarni aniq ifodalaganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Bobur ijodi shunday xarakterlanadi: “Bobur o‘zbek klassik adabiyotida Atoiy va Lutfiylar ijodi bilan ko‘tarilib, Navoiy ijodi bilan balog‘atga erishgan dunyoviy lirikani davom ettirdi. Shuning uchun uning she’rlari insoniy muhabbat qo‘shiqalaridan, insonning real hayot uchun kurashidagi zavqi, dardi, alami va orzularining ifodasi bo‘lish bilan xarakterlanadi. Uning “Boburnoma”si bilan yaxshi tanishib, devoniga qaralsa, u yerdagi she’rlar Bobur hayotining, uning ichki kechinmalarining, shavqli va dardli kunlarining badiiy ifodasi ekanligini bilib olish qiyin emasdir”(B.180-181). Yoki Husayniy haqida olim yozadi: “Qizig‘i shundaki, Husayniyning hamma g‘azallari bir xil vaznda yozilgan. Bu hol boshqa shoirlarda hech ko‘rinmaydi. Buning sababi hali aniqlangan emasdir. Husayniyning she’rlari obrazlarning go‘zalligi, ichki kechinmalarining jozibador ifodalanishi, uslubining ravonligi, tilining puxtaligi bilan ko‘zga tashlanadi”(B.150). Hodi Zarifov o‘rganayotgan har bir ijodkor, shoir haqidagi bunday aniq xulosalar ma’lumotnomalarni o‘ziga xos jajji tadqiqotlar darajasiga ko‘targan. Bir qarashda oddiy ma’lumotnomalardek ko‘ringan bu “jajji tadqiqotlar” o‘z davrida o‘sha shoirlar haqida yangi so‘z edi. Shuni alohida ta’kidlash

kerakki, to‘plamga Atoyi ijodidan 89 ta, Lutfiy ijodidan 26 ta, Husayniydan 39 ta, Boburdan 26 ta g‘azal kiritilgan.

To‘plam oxirida sahifalararo izohlardan tashqari sakkiz yuzdan ortiq so‘zning lug‘aviy ma‘nolari berilgan. Aytish mumkinki, “Navoiy zamondoshlari” matn nuqtai nazari bilan ham, asarlar yuzasidan bildirilgan munosabat, baholanish jihatidan ham juda yuqori saviyada tayyorlangan ilmiy-filologik to‘plamdir.

1941-yildan to umrining oxirigacha Sharq xalqlari eposi va adabiyotini o‘rganish bilan shug‘ullangan V.M.Jirmunskiy[11, 86-97] folklorshunos olimlar davrasida shunday deydi: “...Men umrim davomida Hodi bilan bo‘lgan hamkorligimizni qadrlab kelayotirman va hamisha uning madadiga muhtojman. “Alpomish” dostoni haqidagi monografiyani yozayotganimda shunday bo‘lgandi. Alisher Navoiy ijodi va Sharq adabiyotlarida renessans problemasini o‘rganganimda bunga Hodi qanday qararkan, degan hadik meni bir zum ham tark etgan emas”[3, 75]. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, mashhur tilshunos, adabiyotshunos, folklorshunos, akademik Viktor Maksimovich Jirmunskiy Hodi Zarifovni nafaqat folklorshunos, balki navoiyshunos olim sifatida ham tan olgan.

Hodi Zarifovning Alisher Navoiy ijodiga qiziqishi samarasini, uning 1948-yilda nashr etilgan Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan “Alisher Navoiy aforizmlari” to‘plamida ham ko‘rishimiz mumkin. Olimning bu to‘plami Alisher Navoiy asarlaridagi hikmatlarni to‘plashdagi dastlabki tajribalardan biridir. To‘plamga ulug‘ shoirning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot” asarlaridan tanlab olingan 158 ta aforizmi kiritilgan. To‘plamning “Lug‘at va izohlar” qismida 88 ta aforizmdagi ma‘nolari anglanishi qiyin so‘zlar yoki aforizmning o‘zi to‘laligicha izohlangan[12, 32]. Bu bilan Hodi Zarifov o‘zbek navoiyshunosligida “Alisher Navoiy hikmatlari” rukniga asos yaratgan edi.

Xulosa qilib aytganda, Hodi Zarifovning o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha, xususan Alisher Navoiy ijodi borasida olib borgan tadqiqotlari, ilmiy maqolalari bugun ham o‘z qiymatini saqlab kelmoqda. Olim o‘z davrida tadqiqotlari bilan o‘zbek navoiyshunosligining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi. Hodi Zarifovning Alisher Navoiy ijodiga qiziqishi, olim ijodi haqidagi ilmiy maqolalari, ulug‘ shoir yubileyini o‘tkazish, uni targ‘ib va tashviq qilishdagi fidokorligi adabiyotimiz tarixining ayrim davrlarini yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek mumtoz adabiyotining dahosi Alisher Navoiyning 500 yilligini munosib tarzda o‘tkazish ishlari bo‘yicha mas‘ul bo‘lgan folklorshunos olimning ishlari alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanligi diqqatga sazavordir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Зариф Х. Ўзбек совет фольклористикаси тарихидан / Ўзбек совет фольклори масалалари. Тадқиқотлар. 1-китоб. – Тошкент, 1970. – Б.218-281.

2. Зариф Ҳ. Фозиллар фазилати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги бадиий адабий адабиёт нашриёти, 1969. – 136 б.
3. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. – Тошкент: SHAMS-ASA, 2013. – 380 б.
4. Папка отчёта юбилейной выставки Навои 1940–1941 гг. Фонд №27. Инв. №421 // Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Марказий архив. – Б.15.
5. Муродов М. Навоийшунослар жасорати. – Тошкент: Фан, 1972. – 60 б.
6. Доно Алишер. Тузувчилар М.Муродов, З.Хусаинова, Т.Мирзаев. Масъул муҳаррир Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ёш гвардия, 1968. – 80 б.
7. Мирзаев Т. Ҳ.Т.Зарифовнинг илмий ижоди / Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1967. – Б.3-15.
8. Зариф Ҳ. Фозиллар фазилати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги бадиий адабий адабиёт нашриёти, 1969. – 136 б.
9. Алишер Навоий. Рубоий ва туюқлар. Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зариф. – Тошкент: Ўздавнашр, 1944. – 64 б.
10. Навоий замондошлари. Терма шеърлар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – 208 б.
11. Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема ренессанса в восточных литературах // Серия филол. наук, вып. 59. – Л.: Ленингр. ун-та, 1961. – С.86-97.
12. Алишер Навоий. Афоризмлар. Иккинчи нашри. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Зариф. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948. – 32 б.